

Adiz Boboyev Ishtixon tumanidagi 96-maktabda yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi

Yangiariqdagi yangi korxonalar

Navoiyliklar muqaddas maskanda: Imom Buxoriy majmuasiga media-tur tashkil etildi

2026-yil 1-apreldan ayrim yo'nalishlarda to'lovlar faqat bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi



# Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2026-yil 28-mart, shanba, 28 (24.208)-son

O'zbek xalq maqoli

Qush ham ketsa, keladi, o'z elini sevadi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

www.zarnews.uz

https://www.facebook.com/zarnews.uz

@zarnews\_uz

https://twitter.com/zarnews\_uz

info@zarnews.uz

Prezident tashrifidan so'ng

HARBIY GOSPITAL O'RNIDA

KO'P QAVATLI UYLAR EMAS,

## YOSHLAR BOG'I

TASHKIL ETILDI

Samarqand shahri markazidagi harbiy hospital boshqa joyga ko'chirilarmish, degan gap chiqqanda odamlarda "o'rnida nima qurilarmish?" degan savol paydo bo'ldi. "Albatta, ko'p qavatli uy quriladi-da, atrofda qurilish ketyapti-ku" deganlar ham kam emasdi. Keyinchalik rostdan ham bu yerda ko'p qavatli uy qurilishi haqida gap-so'zlar ko'paydi, ayrimlar hatto loyihasigacha ko'rganini aytdi. "Hududda madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan binolar bor, ularni buzish mumkin emas", dedi yana bir guruh samarqandliklar. Xullas, birov u dedi, birov bu dedi, o'tgan yil hududda qurilish ishlari boshlandi. Faqat ko'p qavatli uylar emas, istirohat bog'i qurilishi aytiladi. 5,4 gektar maydonda zamonaviy yoshlar bog'i tashkil etishga kirishildi. Hududdagi madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan bino va inshootlardan yoshlar uchun turli to'garaklar, o'quv markazlari sifatida foydalanish rejalashtirildi.

PREZIDENT – BOG'NING ILK MEHMONI

Qariyb bir yil davomida hududda amalga oshirilgan qurilish-bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari natijasida maskan ko'rkam bog'ga aylandi. Bu jarayonda hududda mavjud ko'p yillik daraxtlarning birortasi nobud bo'lishi yoki kesilishiga yo'l qo'yilmadi, aksincha, yana yuzlab manzarali daraxt va buta ko'chatlari o'tqazildi, yashil maydazorlar yaratildi. Shu sababli dastlabki paytlarda bu maskan "yashil jamoat parki" deb ham nomlandi. Ammo bog' hududida asosan yoshlar uchun zamonaviy va raqamli kutubxona, ko'p tarmoqli o'quv markazi, kreativ to'garaklar, sun'iy intellekt, 3D model-lashtirish, robototexnika va kibersport o'yinlari markazlari, sport zallari tashkil etilgani uchun ham maskanga Yoshlar kreativ bog'i degan nom berildi.

Davlatimiz rahbari Samarqandga tashrif buyurib, mazkur bog'da yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, yigit-qizlar bilan suhbatlashdi.

– Bog'ning ilk mehmoni sifatida Prezidentimizning bu yerga tashriflari, to'garaklar faoliyati bilan tanishishlari yoshlarimizni ruhlantirdi, – **deydi Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Dilfuza Azizova.**

– Shu yerda yigit-qizlar o'z loyihalari, turli tillarni o'rganayotganlari, kasb-hunar egallayotganlari haqida gapirib berdilar, davlatimiz rahbaridan qimmatli maslahat va tavsiyalar oldilar. Shu paytgacha yoshlar uchun mo'ljallangan

MURABBIY DUBAYDAN SAMARQANDNI AFZAL BILDI

Viloyat shaxmat federatsiyasi yangi bog'dagi binolardan birida faoliyatini davom ettirmoqda va bu yerda yuz o'rinli shaxmat klubi tashkil etildi.

– Bu bizning orzumizdagidan ham yaxshi joy bo'ldi, – **deydi viloyat shaxmat federatsiyasi ijrosi direktori Ilhom Ergashev.** – Shu paytgacha viloyat yoshlar markazidagi bittagina xonada faoliyat olib borardik va u yerda klub tashkil etish yoki to'rt-beshta yoshni to'plab musobaqa o'tkazish haqida o'ylash ham qiyin edi. Viloyatimiz hokimi, shaxmat federatsiyasi raisining e'tibori, respublika federatsiyamizning qo'llab-quvvatlashi tufayli bugun mana shunday katta binoga, zamonaviy sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lib turibmiz. Bu yerda yuz o'rinli ikkita zal, ikkita o'quv xonasi, zamonaviy kompyuter va elektron doskaga ega mashg'ulot xonasi, muzey uchun va



murabbiylar uchun xonalar mavjud. Bugun Samarqand shaxmatining faxriga aylangan jahon chempionlari Jahongir Vohidov va Afruza Hamdamova xonalari tashkil etildi. Aytishim mumkin, respublikamizdagi hech bir shaxmat federatsiyasi bunday sharoitga ega emas. O'tgan haftadan federatsiya qoshida shaxmat klubi faoliyatini yo'lga qo'ydi. Hozircha 20 nafarga yaqin bolalar mashg'ulotlarga qatnashni boshladi. Ularga malakali murabbiylar, ikki nafar grossmeyster saboq beradi. Aleksey Barsov degan juda mahoratli murabbiyimiz bor, shu paytgacha Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahridagi shaxmat klubida ishladi. Bu yerdagi imkoniyat, sharoitlar bilan tanishgach, faoliyatini shu yerda davom ettirishga qaror qildi.

Bugungi kunda viloyatdagi sport maktablari va o'quv markazlarida o'ndan ortiq shaxmat klublari faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur klublarda 300 nafarga yaqin yoshlar mashg'ulotlarga qatnashmoqda. Ayni paytda viloyat shaxmat federatsiyasi joriy yilning sentabr oyida Samarqandda o'tkaziladigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga hozirlik ko'rmoqda.

CHIQUINDI NAZORATIDAN O'QUVCHILAR QIZIQISHINI ANIQLASHGACHA

Bog'dagi binolardan biri sun'iy intellekt va startaplari ofisi hisoblanadi. Ayni paytda bu yerda 10 nafardan ortiq yoshlar sun'iy intellekt asosida bir qator startaplari ustida ishlamoqda.

– Bu yoshlarning barchasi zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt bo'yicha o'z startap loyihalariga ega, shu paytgacha bir qator loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan yigit-qizlar hisoblanadi, – **deydi viloyat hokimining raqamlashtirish bo'yicha maslahatchisi Anzor Anvarov.** – Ular orasida yaqinda o'tkazilgan "Samarkand Al hakaton" g'oliblari ham bor. Bu yoshlar ayni paytda viloyatimiz uchun dolzarb bo'lgan masalalar yuzasidan yangi loyihalar ishlab chiqmoqda. Masalan, Muhammadjon Olimov va Zafar Saidahmadov sun'iy intellekt yordamida chiqindi tashib ketishni boshqarish, "mahalla yetiligi" faoliyatini samarali baholash loyihalari ustida ishlamoqda. Yana bir guruh esa sun'iy intellekt asosida o'quvchilarning fanlarga qiziqishi yoki kasb-hunar o'rganishga moyilligini aniqlaydigan texnologiya yaratish bo'yicha izlanishlar olib bormoqda. Mazkur ofisning tashkil etilishi dasturchi yoshlarimiz uchun bir joyda ishlash, o'zaro fikr va tajriba almashish, yangi g'oya va tashabbuslarni amalga oshirish uchun qulay maskan bo'ldi.

Bog'dagi go'zal tabiat va o'ziga xos landshaft dizayni, sokinlik va orastalik kishiga zavq beradi. Eng muhimi, bu yerdagi muhit, har bir yigit-qizning o'z sevgan mashg'uloti bilan shug'ullanayotgani, vaqtini samarali o'tkazayotgani ushbu maskanga davrga mos chinakam kreativlik bag'ishlamoqda.

G'olib HASANOV, Alisher ISROILOV (surat).

## Jartepada

savdo, logistika va tibbiyot markazi quriladi

Viloyatimizning Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh "Jartepa" chegara o'tkazish punkti yaqinida "O'zbekiston–Tojikiston savdo, logistika va tibbiyot markazi" loyihasi amalga oshirilmoqda.



Davlatimiz rahbari o'tgan yil noyabr oyida viloyatimizga tashrifi chog'ida yangi qurilgan temiryo'l orqali Samarqand shahridan Urgutga borib, endilikda mazkur temiryo'l imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida "Jartepa" chegara maskani yaqinida logistika markazi tashkil etish zarurligini ta'kidlagan edi.

Ana shu tashabbus asosida Jartepa mahallasi hududida, chegara yaqinida 10 gektar yer maydoni ajratilib, zamonaviy logistika, savdo va tibbiy xizmat ko'rsatish maskanlari tashkil etishga kirishildi.

Viloyat hokimi A.Boboyev viloyat va Urgut tumani mas'ullari bilan birga mazkur loyiha bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Urgut tumanidagi "BUYUK KOMPLEKS SITI" MChJ tomonidan amalga oshirilayotgan loyihaning umumiy qiymati 30 million AQSh dollarini tashkil etadi. Loyihaga ko'ra, hududda logistika markazi, 400 ta savdo nuqtasi tashkil etiladi va yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tojikistonliklarga taklif etiladi. Shuningdek, zamonaviy tibbiy markaz faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Yiliga 1,5 million kishiga xizmat ko'rsatishi kutilayotgan markazda 1000 ta ish o'rni yaratilishi, yiliga 5 million dollarlik ekport amalga oshirilishi kutilmoqda.

Viloyat hokimi loyiha bo'yicha qurilish-obodonlashtirish ishlarini sifatli bajarish yuzasidan tavsiyalar berdi. Dastlabki bosqichda loyiha-da ko'zda tutilgan savdo markazini tez fursatda foydalanishga topshirish belgilandi.

## TAYINLOV

Soyipova Norsuluv Raximovna - viloyat prokurorining o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. N.Soyipova tayinlovga qadar Oqdaryo tumani prokurori lavozimida ishlagan.



# YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qililib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunalari va metodik" hududga aylantirilmoqda.

## XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

Sanoat mahsulotlari hajmini 25 trillion so'mga yetkazish va 109,1 foiz o'sishni ta'minlash rejalashtirilgan. Choraklar kesimida barqaror o'sish sur'atlari belgilangan bo'lib, yil yakuniga qadar sanoatda yuqori natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

Jumladan, shaharda faoliyat yuritayotgan 21 ta sanoat korxonasida mahsulot tannarxini 10 foizga pasaytirish bo'yicha aniq choralar ko'riladi.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmlari kengaytirilib, meva-sabzavotni qayta ishlash quvvati 44,5 ming tonnaga yetkaziladi.

Xizmatlar sohasida esa 29,1 trillion so'mlik hajmga chiqish va 124,8 foiz o'sishni ta'minlash rejalashtirilgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 1016 ta yer maydoni auktsionga chiqariladi. 8 ta yuqori o'sish sur'atiga ega korxonalar qo'llab-quvvatlanadi hamda iqtisodiy "drayver" bo'ladigan 4 ta yirik loyiha infratuzilma bilan ta'minlanadi.

Ishsizlik darajasini 3,8 foizdan 1,9 foizga tushirish maqsad qilingan. Buning uchun 18 ming 839 nafar fuqaroni doimiy ishga joylashtirish bo'yicha sohalar va yo'nalishlar kesimida maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olingan.

Birgina "Bandlik organlari - ish beruvchilar hamkori" loyihasi doirasida 2 ming 512 nafar aholi ish bilan ta'minlanadi.

Mahallalarda 1 ming 970 ta mikro loyiha ishga tushirilib, 14 ming 743 nafar aholi ish bilan ta'minlanadi. 2 ming 500 nafar o'zini o'zi band qilgan fuqaro tadbirkorlikning keyingi bosqichiga olib chiqiladi.

Bunda tadbirkorlikning keyingi bosqichiga olib chiqishda mablag'ga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun moliyaviy instrumentlar, masalan, kredit, subsidiya va sudalar taklif qilish, faoliyatini kengaytirish uchun yer maydoni ajratishga ko'maklashish (ijara yoki auktsion orqali) ko'zda tutilmoqda.

"Mehnatsevar ayol", "Teng imkoniyat - inkluziv bandlik", "Barqaror kelajak sari" dasturlari orqali minglab xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshlar doimiy daromad manbaiga ega bo'ladi. Bunda 1 ming 805 nafar xotin-qiz, 724 nafar nogironligi bo'lgan shaxs hamda 4 ming 580 nafar yoshning

bandligi ta'minlanadi.

Kambag'al oilalarni barqaror bandlik xizmatlari bilan qamrab olish va daromad keltiradigan faoliyat turlariga yo'naltirish rejalashtirilgan. Bunda kambag'allik reestrada turgan 14,6 ming nafar oila a'zolari barqaror bandlik xizmatlari bilan qamrab olinadi. Yil yakuniga qadar kambag'allik darajasi 2,8 foizga tushiriladi.

Joriy yilda 369 million dollar miqdorida xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, umumiy qiymati 346,1 million dollar bo'lgan 59 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Ushbu loyihalarni natijasida 1 632 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Eksport hajmini 472,5 million dollarga yetkazish, Yevropa ittifoqi davlatlariga GSP+ imkoniyatlaridan keng foydalangan holda eksportni oshirish belgilangan.

Samarqand shahrida yangi massivlarda ko'p qavatli uy-joylar qurilishi jadallashtiriladi. Xususan, Shirin shaharchasi, Temiryo'l orti va Qorasuv-2 massivlarida 1107 gektar maydonda 98 ming 260 ta xonadonli 710 ta zamonaviy uy qurilishi rejalashtirilgan.

Shaharda 148 ta yangi elektrobus va avtobus xarid qilinib, jamoat transporti yangilanadi. 5,4 kilometr alohida avtobus yo'laklari tashkil etiladi.

Elektr, gaz va ichimlik suvi tarmoqlarini yangilash, 32,8 kilometr yangi elektr tarmoqlari qurish, 238,3 kilometr tarmoqlarini mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.

# SAMARQAND

## shahri

## tumani



Xizmatlar hajmini 4 trillion 507 milliard so'mga yetkazish va 120,5 foizlik o'sishga erishish rejalashtirilgan. Bu esa aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy servis markazlarini tashkil etish va turizm, savdo hamda logistika xizmatlarini rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

Chakana savdo aylanmasini 6 trillion so'mga yetkazish rejai ham aholi daromadlari ortib borayotgan va iqtisodiy faollik kuchayayotganining muhim belgisi hisoblanadi. Buning uchun yangi savdo markaz-



"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 556 ming tup ko'chat ekiladi.

Yil davomida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 768 nafar xotin-qiz IT sohasiga o'qitiladi, 2 ming 269 nafari kasb-hunarga jalb qilinadi. Rejaga ko'ra, 11 ming 405 nafar opa-singillarimizning iqtisodiy imkoniyatlari kengaytiriladi. Ya'ni, shuncha xotin-qizlarni ishga joylashtirish, kredit, ssuda va subsidiya ajratish, hunarmand uyushmasiga a'zo qilish, o'zini o'zi band qilishi uchun yordam beriladi.

Lider tadbirkor ayollarga 237 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni biriktirib, daromad topishga o'rgatish ham dasturda belgilangan muhim vazifalardan. Dastur doirasida 12 ming 921 nafar ehtiyojmand xotin-qiz "Ayollar daftari" orqali manzilli qo'llab-quvvatlanadi.

Umuman, joriy yil uchun belgilangan ushbu kompleks chora-tadbirlar Samarqand shahrini iqtisodiy jihatdan kuchli, ijtimoiy himoyalangan, zamonaviy infratuzilmaga ega va barqaror rivojlanayotgan hududga aylantirishga xizmat qiladi.

Tumanda joriy yilda sanoat mahsulotlari hajmini 4 trillion 337 milliard so'mga yetkazish va 110 foizlik o'sishga erishish rejalashtirilgan bu sohada ijtimoiy qanchalik keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Bu natijalarga erishishda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

qishloq xo'jaligi sohalarida amalga oshiriladigan yirik loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, 110 million dollarlik 5 ta yirik investitsiya loyihasini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Investitsiya dasturlari doirasida umumiy qiymati 244 million dollar bo'lgan 81 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularning 16 tasi sanoat, 44 tasi xizmat ko'rsatish, 21 tasi esa qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi. Bu loyihalar natijasida 2200 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida tuman delegatsiyalarining Xitoy, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlar-ga tashriflari rejalashtirilgan. Bunday xalqaro hamkorlik aloqalari yangi texnologiyalar, investitsiyalar va zamonaviy boshqaruv tajribalarini hududga olib kirish imkonini yaratadi.

Tumanda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Joriy yilda tumanda kambag'allik darajasini 2,6 foizdan kambag'allikdan xoli hudud darajasiga tushirish maqsad qilingan.

Bu maqsadga erishish uchun 1161 ta oila va ularning 4644 nafar a'zosini iqtisodiy faollikka jalb qilish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka yo'naltirish ishlari amalga oshiriladi.

Masalan, "Bandlik organlari - ish beruvchilar hamkori" loyihasi doirasida 986 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanadi. "Mehnatsevar ayol" loyihasi orqali esa 745 nafar xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi oshiriladi.

Yoshlar bandligi ham alohida e'tibor markazida. Jumladan, "Barqaror kelajak sari" dasturi doirasida 1928 nafar yoshlar ish bilan ta'minlanadi. Shu bi-

lan birga, kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va yoshlar startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar olib boriladi.

Shuningdek, "Yangi O'zbekiston qiyofasi" loyihasi doirasida Ohalik, O'zbekkentni va O'rtashiq mahallalarini kompleks rivojlantirish rejalashtirilgan. Bu hududlarda yo'llar, kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy obyektlar va xizmat ko'rsatish infratuzilmalari yangilanadi.

Yil davomida mahallalarda 2960 ta yangi mikro loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bu orqali 5920 nafar aholi bandligi ta'minlanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida mahsulot ishlab chiqarish hajmini 3 trillion 643 milliard so'mga yetkazish kutilmoqda. Shuningdek, 1484 gektar maydonda boshqoqli don ekinlaridan yuqori hosildorlikka erishish, 1018 gektar maydonga kartoshka ekish va sabzavot yetishtirish hajmini oshirish rejalashtirilgan.

Yil davomida 1935 gektar maydonda tomchilatib va yong'irlatib sug'orish texnologiyalari joriy etiladi. Go'sht ishlab chiqarishni 25,5 ming tonnaga, sut ishlab chiqarishni 61 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Ayni paytda ekoturizm, ziyo-rat turizmi va ekstremal turizmi rivojlantirish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmogda. Jumladan, "Kofirqal" arxeologik yodgorligi, "Nodir Devonbegi" ziyoratgohi kabi tarixiy maskanlarni obodonlashtirish va turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ishlari olib borilmoqda.

Qisqacha aytganda, Samarqand tumanida 2026-yil uchun belgilangan vazifalar hududni iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, aholi bandligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va ijtimoiy sohalarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tumanning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

# Mo'g'uliston qo'ylari

## IQLIMIMIZGA QANCHALIK MOSLASHA OLADI?

Hozirda viloyatimizda qo'ychilik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan 223 ta xo'jalikda 434,3 ming bosh qo'y va echki parvarishlanmoqda. Prezidentimizning o'tgan yil Mo'g'ulistonga amalga oshirgan oliy darajadagi tashrifi davomida O'zbekistonga ushbu davlatdan 100 ming bosh qo'y va echki olib kelish bo'yicha kelishuvga erishilgandi. Shu asosida viloyatimizda Mo'g'ulistondan jami qiymati 14 milliard 739 million so'mlik 7 ming 20 bosh "Bayat" zotli naslli qo'y olib kelingan. Jumladan, Bulung'ur tumanidagi "Sardorbek Naslli Chorvasi Agro" fermer xo'jaligi 461 bosh, Jomboy tumanidagi "Xumo-1" fermer xo'jaligi 200 bosh, Nurobod tumanidagi "Qo'shquduq Nurobod Chorvasi" fermer xo'jaligi 1274 bosh, "Samarqand Nurobod Go'sht Sut" MChJ tomonidan 5085 bosh qo'y keltirilgan.

- Qo'shni davlatlardan "Hisori" zotli va boshqa davlatlardan naslli qo'ylar keltirish imkoniyati mavjud edi, - deydi viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Odixon Baqoyev. - Lekin "Bayat" zotli qo'ylar iqlim sharoitiga tez moslashuvchan bo'lib, 40 daraja sovuq va shuncha issiq haroratda ham o'z mahsuldorligini saqlab qolishi bilan ajralib turadi. Ushbu zotli qo'ylarning tirik vazni 70-80 kilogramm, qo'chqorlari 100-120 kilogrammacha yetadi, go'sht chiqimi esa tirik vazniga nisbatan 60 foizni tashkil etadi. Ularning genofondi yuqori bo'lib, mahalliy qo'ylar genofonidini qisqa vaqt ichida yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur zot parazitlar va infeksiyon kasalliklarga chidamligi bilan ham iqtisodiy samarador hisoblanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha bu qo'ylar sovuq,

issiq va cho'l sharoitlariga mos, iqlimga tez moslashuvchan, hosildorligi past yaylovlarda ham yashovchanligi yuqoriligi bilan ahamiyatli. Yiliga bir marta bolalaydi. Go'shtining sifati yaxshi va yog'li, junini sanoatda ishlatish mumkin.

- Men cho'ponlarning uchinchi avlodidanman, bobom, otam ham umri davomida qo'y boqqan, - deydi Nurobod tumanidagi "Qo'shquduq Nurobod Chorvasi" fermer xo'jaligi boshlig'i Faxriddin Qarshiyev. - Xo'jaligimizdagi mahalliy zotdagi qo'ylardan tashqari 2022-2023-yillarda Qirg'iz Respublikasidan 2 ming boshga yaqin "Hisori" zotli qo'y keltirib, ko'paytiraymiz. O'tgan yil oktyabrda Mo'g'ulistondan 1200 bosh "Bayat" zotli qo'ylarni olib keldik. Hozir xo'jaligimizda 6 ming boshdan ortiq chorva parvarishlayapmiz. Biz Olg'a massivida chorvachilik qilamiz va bu yerlar dasht

hudud hisoblanib, kechasi va qish paytida izg'irin shamol kuchli bo'ladi, buning ustiga qishda turli chorva kasalliklari uchraydi. Shu bois qo'ylarni keltirganimizda bu zotli qo'ylar sovuqqa qanchalik chidashini bilmasdik. Har bir qo'yingning o'rtacha tirik vazni 30-40 kilogramm atrofida edi. Dastlab qo'ylarni cho'ponlar tili bilan aytganda "chechak", "gul" va boshqa 4-5 xil kasallikka qarshi emlatdik. Tez moslashishi tufayli qishni talofatsiz o'tkazdik, vaznini yo'qotmasdan asrab qolganimiz ham aslida yutuq hisoblanadi. Mart oyi kelishi bilan qo'ylar bolalay boshladi. To'l mavsumini o'tkazib olsak, keyingi ikki oyda bu zotli qo'ylar qanchalik moslashgani va o'zgarishini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Faqat keyingi yillarda bizda yoz oylarida anomal issiq kuzatilmoqda. Bu jazirama qo'ylar qanchalik moslasha oladi shunisi xavotirli. Chunki Mo'g'ulistonda

yo'z oylari 35-40 darajagacha issiq bo'larkan, bizda esa undan yuqori issiq kuzatilmoqda. Tashvishimiz shundan.

Biz uchun yana bir og'riqli masala xo'jaligimizda hozirgi 6 ming bosh o'rniga naslli chorva mollari 10 ming boshga yetkazishimiz mumkin. Buning uchun chorva uchun yaylov maydonimiz yetishmaydi. Hududdagi bosh soni kam, ammo yer maydoni katta xo'jaliklar maqbullashtirilsa, yaylov maydonimiz kengaysa mayda shoxli naslli chorva mollari ikki barobar ko'paytirish imkoniyati paydo bo'ladi.

2026-yilda Mo'g'ulistondan yana 8280 bosh "Bayat" zotli naslli qo'ylar olib kelinishi va naslli qo'y bosh sonini 20 mingga ko'paytirib, qo'shimcha 500 tonna go'sht tayyorlash rejalashtirilgan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.



**Safdoshlari uchun u haligacha g'ayrati jo'shib, shijoati taniga sig'may mehnat qilayotgan, ezgu tashabbuslarga bosh bo'layotgan faol, yetakchi. Vaholanki uning o'zi va do'stlari ham allaqachon nuroniylik maqomiga yetgan, yoshi yetmishdan oshib, hayotning ko'p past-balandini ko'rgan, achchiq-chuchugini tatib, umrning mazmunini anglagan insonlar. Shuning uchun u ayni chog'da nuroniylar orasida faol, xayrli ishlarga bosh qo'shib yurgan oqsoqollardan biri.**

Ko'p yillar Samarqand shahar yoshlar tashkilotida mehnat qilgan, yigit-qizlarga bosh bo'lib, ko'plab tashabbuslarni, xayrli ishlarni amalga oshirgan, viloyat boshqaruv idoralarda, savdo sohasida samarali ishlagan Farhod O'Imasov bugun 75 yoshga to'libdi.

Farhod O'Imasov Samarqandda tug'ilib o'sgan. Shahardagi 9-maktabni a'lo baholar bilan bitirib, Samarqand kooperativ texnikumida, so'ngra Samarqand kooperativ instituti (hozirgi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti)da o'qigan. Talabalik davridayoq faolligi va tashabbuskorligi bilan e'tiborga tushgan. Shu bois faoliyatini savdo sohasida boshlagan bo'lsa ham tez orada rahbarlar e'tiboriga tushib, shahar yoshlar tashkilotiga ishga taklif etilgan, mas'ul vazifalar unga ishonib topshirilgan.

Samarqand azaldan ilm-ma'rifat maskani, doimiy e'tibordagi shahar bo'lgani uchun bizning davrimizda ham yoshlar ishtirokidagi juda ko'p tadbirlar, festivallar shu yerda o'tardi, - deydi Farhod aka. - Albatta, bugungidek sharoit - katta-katta yoshlar saroylari, sport inshootlari, madaniyat muassasalari bo'lmasa ham mavjud imkoniyatdan unumli foydalanib, sobiq ittifoq darajasidagi tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazishga harakat qilardik va bunga erishardik ham. Mas'uliyat kuchli edi, zimma-mizga yuklatilgan vazifani bekamu ko'st bajarishga harakat qilardik. Biz tengi kishilar bilan suhbatlashib ko'ring, hali ham o'sha mas'ullik, javobgarlik hissi borligini sezasiz ularda.

Farhod aka o'tgan asrning saksoninchi yillarida viloyat partiya qo'mitasida faoliyat olib bordi, boshqaruv sohasida mas'ul vazifalarda ishladi. So'ngra viloyat savdo tizimida kasbiy faoliyatini davom ettirdi. Bir muddat Kattaqo'rg'on shahar savdo tashkilotiga rahbarlik qilgach, yana Samarqandga qaytib, Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillarida oziq-

## Yoshlar yetakchiligidan nuroniylar sardorligigacha



ovqat taqchilligi sharoitida shahardagi qiyin vaziyatga tushib qolgan korxonalarini boshqardi. Marmar dehqon bozori rahbarligini o'z zimmasiga oldi. Shahardagi eng katta mehmonxonalardan biri bo'lgan "In-turist"ga rahbarlik qilgan davrida ham bu inshootdan samarali foydalanib, uning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga erishdi. Bu orada Samarqand shahar hokimligi rahbariyati devonxona va ishlar boshqaruvida Farhod O'Imasovning boy hayotiy tajribasidan foydalandi, u kishi ikki yil bu vazifalarni bajarish bilan birga ish uslubi va tajribalarini yoshlarga o'rgatdi.

Farhod aka shaharning, boshqaruv tizimining jonli ensiklopediyalaridan biri, afsuski, bunday insonlar bugun juda kam, - deydi "Nuroniylar" jamg'armasi shahar bo'limi rahbari Xurshid Nurullayev. - Ishlagan davrida g'oyat murakkab vazifalarni bajarganini yaxshi bilamiz, lekin pensiyaga chiqqanidan keyin ham uyda oyoq uzatib o'tirgan emas. Hamma vaqt xalq orasida, jamoatchilik bilan birga. Shahar hayotida, yon-atrofdagi biror muammoni ko'rsa yoki bu haqda ehsitsa, o'z bilganicha, imkoniyatiga qarab

unga yechim topishga harakat qiladi. Hech bo'lmaganda bu haqda rahbarlarga aytadi, yoshlarga maslahat beradi, yo'li-yo'riq ko'rsatadi. Bir necha yil oldin viloyat va shahar hokimligi Xishrav va Kimyogarlar qo'rg'onini obod qilish, bu yerda ancha vaqtdan buyon e'tibordan chetda qolgan masalalarni hal etishga kirishgan-da jamoatchilik faoli sifatida Farhod aka mas'ul etib belgilangan edi. Ana shu jarayonda ham bu insonning qanchalik jonkuyarligi, shahar uchun fidoyiligiga yana bir bor amin bo'lganman. Ayni paytda shahrimizda ehtiyojmand oilalarni kambag'allikdan chiqarish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda har bir mahallada nuroniylar maslahat guruhi bilan samarali foydalanilmoqda. Farhod aka ana shunday faol nuroniylarimiz safida

bugun ham o'z safdoshlariga ibrat bo'lib, barchamizga hayot sabog'ini o'rgatmoqda.

Farhod O'Imasov tarjimai holiga nazar solsangiz, uning fidokorona mehnatlari hamma vaqt qadrlanib, e'tirof etib kelinganiga amin bo'lasiz. O'quvchilik yillaridan boshlab, hanuzgacha - nuroniylar sifatida ham tashakkurnoma va faxriy yorliqlar, esdalik nishonlari bilan taqdirlanib kelmoqda. Jumladan, 2023-yilda birinchi darajali "Mehnat faxriysi" nishoniga loyiq ko'rildi. Muhimi, doim elning e'tiborida, hurmat-e'zozida.

Farhod aka shahardagi ibratli katta bir oilaning sarboni. 52 yillik umr yo'ldoshi Xolida aya bilan to'rt farzandni ulg'aytirib, bugun ularning baxtu rohatini ko'rib hayot kechirmoqda. Yigirmadan ortiq nevara va evaralari tunu kun ular atrofida parvona.

Hayotda o'z o'rnini topib, ezo ishlar bilan nom qozongan, hurmat-ehtiromga sazovor bo'lgan Farhod O'Imasovni qutlug' 75 yoshi bilan tabriklab, u kishiga mustahkam sog'liq, uzoq va barakali umr tilaymiz.

**G'.HASANOV.**

**Ma'rifat maskani Kattaqo'rg'on shahridan ko'plab ziyolilar yetishib chiqqan. Ulardan biri xalq ta'limi va sport sohasida samarali faoliyat olib borgan, el-yurt ichida alohida hurmat va e'tirofqa sazovor bo'lgan inson Mansur Rashidovdir.**

## Samimiylikni shior tutgan ustoz

M. Rashidov 1956-yilda dunyoga keldi. 1963-1973-yillarda Kattaqo'rg'on shahridagi 6-maktabda tahsil oldi. Toshkent shahridagi oziq-ovqat bilim yurtida o'qidi, so'ngra Toshkent shahridagi 1-non zavodida mehnat qildi.



Ammo uning orzusi yosh avlod tarbiyasiga hissa qo'shish edi. Shu bois hayotini xalq ta'limi tizimi bilan bog'ladi.

1977-1984-yillarda shahar maorif bo'limiga qarashli 13- va 4-maktablarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritdi.

Mehnatsevarlik va tashkilotchilik qobiliyati uni yuqori lavozimlarga yetakladi. 1984-1986-yillarda jiroiya qo'mitasida jismoniy tarbiya va sport bo'limi raisi o'rinbosari, so'ngra 1- va 16-maktablar direktori o'rinbosari sifatida faoliyat olib bordi. Keyinchalik Ibn Sino nomidagi bolalar dam olish oromgohida rahbarlik qildi, shahar hokimiyati huzurida sport qo'mitasi raisi lavozimida xizmat qildi.

1998-2012-yillarda 5-maxsus maktab-internati direktori sifatida ta'lim muassasasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. Shahar xalq ta'limi bo'limi boshlig'i o'rinbosari, madaniyat va sport bo'limi raisi o'rinbosari sifatida faoliyat yuritdi.

2012-2020-yillarda Kattaqo'rg'on shahar "Nuroniylar" jamg'armasida ishlab, keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi ijtimoiy-ma'rifat ishlarida faol ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi "Shahidlik xotirasi" jamiyat fondi shahar bo'limi raisi sifatida jamiyatda insonparvarlik, vatanparvarlik va xotirani qadrlash kabi yuksak qadriyatlarini targ'ib etish ishlarida qatnashdi.

Ustozning ko'p yillik samarali mehnati "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi", "O'zbekiston sport faxriysi" e'tiroflariga sazovor bo'ldi.

M. Rashidovning pedagogik, rahbarlik faoliyati ko'plab shogirdlar qalbida iz qoldirdi. Uning tarbiyasini olgan o'quvchilar bugun turli sohalarida mehnat qilmoqda.

Ustoz Mansur Rashidovni muborak 70 yoshi bilan tabriklaymiz va yana ko'p yillar el-yurt xizmatida bardavom bo'lishini tilaymiz!

**Sh. TURDIYEV,**  
mehnat faxriysi.

# BEPUL yuridik yordam

**kimlarga va qaysi mezon asosida beriladi?**

**Moliyaviy imkoniyatning cheklanganligi inson huquqlarini himoya qilishda to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, aholiga bepul huquqiy yordam olish imkoniyatini yaratildi.**

**Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimi manzillik tamoyiliga asoslanadi. Undan quyidagi toifadagi shaxslar foydalanishi mumkin:**

- kam ta'minlanganlar: agar ular fuqarolik, ma'muriy yoki jinoyat ishlari doirasida (da'vogar, javobgar, arizachi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkum sifatida), shuningdek, ma'muriy qamoq nazarda tutilgan huquqbuzarliklarda ishtirok etsa;
- maxsus himoyaga muhtojlar: psixiatriya yordami ko'rsatilayotgan shaxslar;
- huquqiy tenglik izlovchilar: Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi sababli sudga murojaat qilganlar;
- protsessual majburiyat: jinoyat ishi bo'yicha advokat ishtiroki shart bo'lgan holatlardagi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilar.

Yuridik yordam olish to'g'risida berilgan arizani rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- ariza yoki so'rov qonun talablariga mos bo'lmasa;
- ariza vakil tomonidan berilgan, uning vakolatini hujjatlar bo'lmasa;
- psixiatriya muassasasidan psixiatriya yordami olayotganini tasdiqlovchi ma'lumotnoma bo'lmasa;
- gender tengligi buzilishiga oid ish sidda ko'rilayotgani haqida ma'lumotnoma bo'lmasa;
- taqdim etilgan hujjatlarda yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumot bo'lisa;
- ayni shu nizo bo'yicha oldin davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilgan bo'lisa (yangi holatlar-dan tashqari).

Yuridik yordam quyidagi holatlarda ko'rsatish yakunlanadi:

- fuqaro o'z xohishiga ko'ra bepul advokatdan voz kechganda;
- shaxs ijtimoiy himoya yagona reyestrda kam ta'minlanganlar toifasidan chiqarilgan;
- jismoniy shaxsga psixiatriya yordamini ko'rsatish tugatilgan bo'lisa;
- fuqaro o'z mablag'i hisobidan boshqa advokat bilan shartnoma tuzganda;
- shaxsning arizasida ko'rsatilgan masala bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish sudning tegishli hukmi, qarori yoki ajrimi chiqarilganligi munosabati bilan yakunlangan bo'lisa.

**M. TURSUNOV,**  
Payariq tumani yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Eshnazarov Kurbonga (2017-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasida marhum Abulkasimova Tamara Kamaliddinovna (2024-yil 24-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 50-uy, 34-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Qosimov Hamroqulga (2019-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Abdurahshidov Allayor Ulug'bekovichga (2017-yil 11-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Akramova Xosiyatga (1972-yil 15-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-"A" uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Moronov Utkur Amonovichga (2021-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Esfeld Taisiya Nikolayevnaga (2026-yil 24-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Djurayev Olimjon Xamrakulovichga (2021-yil 5-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'li ko'chasi, 9-"B" uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboevich notarial idorasida marhum Kaxarov Abdusattarga (2020-yil 25-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Meliyeva Xolchuchuk Azzamovnaga (2016-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Bolibekov Nabijon Achilovichga (2025-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Istixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyev Sardorbek Akmaljon o'g'li notarial idorasida marhum Saidov Toshboy Yaxshiboyevichga (2023-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyev Sardorbek Akmaljon o'g'li notarial idorasiga murojaat

etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Istixon tumani Istixon ko'chasi, 43-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Bagirov Maxkamga (2018-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasida marhum Jumonov Nishon Usanovichga (2024-yil 3-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqqilik maydoni.**

**BEKOR QILINADI**  
Narpay tumanidagi "ABDULLO BOBO NARPAY" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312149186) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "ISSIQLIK SERVIS KOMUNALCHI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 302381356) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

**TOPGANGA MUKOFOT!**  
Fuqaro Raximov Anvarjon Nurullayevichning (JSHSHIR: 30701766180043) haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.  
**Telefon: +99899-112-65-40.**

Amir Temur tavalludining 690 yilligi oldidan

# Farzandlarining ilm olishi, tarbiyasini nazoratda tutdi

Mamlakatimizdagi ikki Renessans jahon tarixining nodir sahifalaridan hisoblanadi. Ushbu uyg'unlik davrlarining biz uchun ahamiyatli, ibrat oladigan jihati buyuk bobomiz Amir Temurning hayoti va faoliyati bilan bog'liq.



bini turk tiliga tarjima qildirdi. Ushbu asar Xiva xoni Muhammad Rahimxon II farmoni bilan 1865-1910-yillarda bir guruh tarjimonlar tomonidan eski o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. 2006-yilda esa "Mukammal tarix"ning ruscha nashri chop etilgan.

XV asrda Mirzo Ulug'bek asos solgan Ulug'bek akademiyasi tomonidan yulduzlar ilmi, koinot jismlari harakatiga oid "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari yaratildi.

Amir Temur davri va uning shaxsiyatini o'rganish yoshlarimiz uchun yorqin ibrat namunasidir. Bunda yoshlar dunyoda chin inson bo'lmoq qanday sharafli ekanini, vatanparvarlik oliy burchligini, odamiylik yuksak fazilatligini his etadilar, buyuk orzularni dilga tugishadi.

Sohibqiron o'z farzandlari, nabiralarning har biriga ziyoli insonlardan otaliq (atka) tayin qilardi. Chunki u zurriyotlarining Qur'on ilmi, tarix, adabiyot, handasa, musiqa, she'r san'ati, xattotlik, davlatni boshqarish siyosati, harb ishi, diplomatiya sirlarini o'rganishini istardi. Mazkur omillar sabab temuriylar naslidan davlat arboblari, sarkardalar, shoirlar, xattotlar, ziyolilar va ma'naviyat homiylari yetishib chiqdi. Natijada Ulug'bek Mirzo, Xalil Sulton, Ibrohim Sulton, Boysung'ur Mirzo, Iskandar Mirzo, Sulton Husayn Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Bobur Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunnisobegim kabi shaxslar kamolga yetdi.

Qolaversa, Amir Temur farzandlarining tarbiyasini doim nazoratda tutdi. Chunonchi, mohir xattot, Sheroz hokimi Ibrohim Sulton ibn Shohrux tomonidan ko'chirilgan Qur'oni karim nusxasi bugun Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyida saqlanmoqda.

Buyuk sarkarda farzandlarining o'qib, zamonaviy ilmlarni o'zlashtirishi uchun Ko'ksaroy kutubxonasi ko'plab nodir kitoblarni keltirdi, boyitdi. Jahon tarixini yoritgan arab muarrix Ibn al-Asirning ko'p tomlik "Al-komil fit-tarix" ("Mukammal tarix") kito-

Qolaversa, tarixiy haqiqatlarni bog'cha yoshidan bolalarning ongiga singdirish maqsadida Amir Temur haqida multiplikatsion filmlar yaratish lozim. Bu orqali e'tiqod, Vatanga mehr, insoniylik g'oyalari bolalar ko'ngliga naqshlanadi. Sohobqiron hayoti bilan bog'liq tarixni yaratishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanish kerak. Aytaylik, televideniya "Temuriy shahzodalar", "Temuriy malikalar" mavzusida qiziqarli, diqqatni o'ziga jalb etuvchi ko'rsatuvlar tayyorlash mumkin. Bunday ko'rsatuvlar yordamida yoshlar tarixni o'rganadi, ko'nglida ota-bobolaridan faxrlanish tuyg'usi shakllanadi. Qolaversa, tarixiy shaxslarga oid teleseriallar tayyorlash ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Shundaygina Amir Temur ma'rifati va ma'naviyati hech qachon so'nmaydi.

**Zuhro ESHONQULOVA,**  
Xalqaro Amir Temur jamoat fondi  
viloyat bo'limi boshlig'i.

27-mart - Xalqaro teatr kuni



**Bugungi kunda teatr san'ati jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida yangi bosqichga qadam qo'yimoqda. Yurtimizdagi teatrlar faoliyatiga nazar tashlasak, ular nafaqat boy tarix va shakllangan ijodiy maktabga ega madaniy maskan, balki zamonaviy ta'lablar, o'zgaruvchan tomoshabin didi va iqtisodiy omillar ta'sirida rivojlanayotgan murakkab tizim ekanini ko'ramiz. Ayni paytda teatrlar oldida badiiy saviyani saqlash va keng jamoatchilikni jalb qilish masalasi turibdi.**

Xo'sh, teatr jamoalari bu vazifalarni qay darajada uddalayapti?

Bir asrlik tarixga ega viloyat musiqali drama teatri repertuarida bugungi kunda 40 ga yaqin spektakl bor. Ular orasida jahon dramaturgiyasining sara namunalari, milliy va zamonaviy asarlar, musiqali sahna ishlari, bolalar uchun mo'ljallangan spektakllar hamda tarixiy mavzulardagi asarlar mavjud.

O'zbek va jahon dramaturgiyasining eng sara namunalari izlab topish, ularni sahnalashtirish ustida ishlayapmiz, - deydi viloyat musiqali drama teatri bosh rejissyori Shuhrat Sanaqulov. - Chinakam badiiy qiymatga ega asarlar har qanday davrda ham tomoshabin qalbiga yo'l topadi. Biroq bugungi kunda tomoshabin jalb etish masalasi juda dolzarb bo'lib qolmoqda. Rosti, har doim ham spektakllar maromiga yetkazib sahnalashtirilmaydi. Chunki rollarni mahorat bilan ijro etadigan, sahnani his qila oladigan iqtidorli aktyorlarimiz kam. Shu bilan birga, teatrga borishni odatga aylantirmagan va umrida bir marta ham spektakl tomosha qilganlar bor. Misol uchun, bepul namoyish etgan spektakllarimizga ham odamlar kam keladi va oxirigacha ko'rishga sabri yetmaydi yoki bilel qimmatligini bahona qilib teatrga kirmaydi. Bu esa bizda haligacha teatrga borish madaniyati shakllanmaganini ko'rsatadi. Teatrga tomoshabin ko'proq jalb qilish uchun avvalo, zamon bilan hamnafas yurish, odamlarning qarshilari va axborot texnologiyalarini hisobga olib, taniqli aktyorlar va iqtidorli yoshlarni zamonaviy usulda spektakllar yaratishga jalb qilish kerak.

Viloyat qo'g'irchoq teatri direktori Feruzbek Abdurayimovning ta'kidlashicha, rivojlangan mamlakatlarda madaniyat va san'atga e'tibor yetakchi o'rinlarda turadi. Bolalar bog'cha yoshidanoq teatr nimaligi va asarlardagi qahramonlarni kashf qilib bo'lishadi. Bizda esa bu jarayon endi shakllanyapti. Teatr faqat mazmunli hordiq chiqaradigan madaniyat maskani emas, balki tarbiya maktabi hamdir. Tomoshabin shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo'lgani uchun teatrga borishni yoshlikdan odatga aylantirish maqsadga muvofiq. Albatta, bunda ota-onalarning roli katta. Ammo taraqqiyot teatrlar oldiga ham murakkab talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar ta'sirida o'sgan yosh avlod tezkor, dinamik va vizual jihatdan boy kontentga o'rganib qolgan. Bu tabiiy ravishda sahna asarlariga bo'lgan talabni ham o'zgartirmoqda. Natijada repertuarda komedik janrdagi spektakllar ulushi oshib bormoqda. Ushbu jarayon dastlab bolalarni yengil asarlar bilan teatrga qiziqitirib, keyin katta spektakllarga o'rgatishni talab etadi. To'g'ri, tomoshabin talabidan chetda qolib bo'lmaydi va yengillik ortidan quvib, badiiy saviyani yo'qotish ham xato. Chunki teatring asosiy vazifasi faqat ko'ngilocharlik emas, balki fikrlashga undash va hayotiy xulosalarni chiqarishga o'rgatishdir.

Mutaxassislar fikridan ko'rish mumkinki, teatrlarda chuqur g'oyaviy mazmunga ega asarlar yaratish va zamonaviy texnologiyalarni tizimga to'liq olib kirish asosiy jihatlardan sanaladi. Xususan, lazer effektlari, katta sahna monitorlari, 3D vizual yechimlar spektakl imkoniyatlarini kengaytiradi. Texnologiya faqat tashqi effekt emas, balki asar mazmunini teran ochib berish va tomoshabin o'sha muhitga olib kirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, mutaxassislar tomoshabin tarbiyasi va teatrga muhabbat o'ladigan boshlanishini ta'kidlamoqda. Albatta, bolalikdan shakllangan estetik did va madaniy ehtiyoj keyinchalik jamiyatning ma'naviy saviyasiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, teatr nafaqat sahna, balki jamiyat ongida ham o'z o'rnini mustahkamlashi uchun tomoshabin shakllantirish kerak. Bunda oilalar, ta'lim dargohlari va madaniyat muassasalari o'rnatadigan hamkorlik orqali yosh avlodni teatrga jalb qilish, ularda san'atga muhabbat uyg'otish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Sarvinov MAMANOVA,**  
viloyat musiqali drama teatri adabiy qism mudiri.

## So'z qa'ridan gul tergan shoira

Bahor kelib, tabiat kelinlik libosini kiygan kunlarning birida Jomboy tumanida bo'lib turadigan yosh ijodkorlarning mushoirasida shiringina qizaloqning zavq bilan she'r o'qiyotganiga ko'zim tushgan edi. Oradan bir necha yil o'tganidan so'ng o'sha qizaloqni talablik yillarida yana bir bor uchratdim.



Bu hozirgi kunda ko'zga ko'ringan mohir jurnalist, iste'dodli shoira va adiba Gulchehra Jamilova edi. U bilan uzoq suhbatlashdik, men uning she'rlari haqida fikrimni aytdim va ijodiga omad tiladim. Shundan buyon Gulchehrada mehri, kamtarinlikmi, samimiyatmi borligini his qilaman.

Tasodifni qarangi, u mening o'quvchim bilan taqdirini bog'ladi. Ikki farzandli bo'ldi. Tinmay ijod qildi, elga tanildi. Shundan buyon Gulchehrani kuzatar ekanman, u har qanday holatda ham o'z hayot muvozanasi-

tini birday saqlay oladigan, og'ir vaziyatni yumshatadigan xislatlarini yo'qotmadi. U ham oilani, ham jamiyatdagi o'rnini topgan ijodkor sifatida el nazariga tushishga, hurmat-e'tibor qozonishga erishdi. Bu o'z-o'zidan amalga oshmagan. Uning "O'zbekiston ovozi" gazetasida, "Saodat" jurnalida olib borgan jurnalistik faoliyati qalami charxlanishiga, ijodining mazmunan boyishiga asos bo'ldi.

Menga sovg'a qilgan "Umr hikmatlari", "Qoyadagi atirgul", "Movi barqut siri",

"Yorug' kun", "Men borman, hayot", "Xizrni ko'rgan odamlar", "O'zim bilan yuzma-yuz", "Nur vodiysi" nomli kitoblarni o'qir ekanman, Gulchehrani yangidan kashf eta boshladim. Rostini aytaman, menga sovg'a qilingan kitoblarni bir ko'zdan kechiraman-u, ko'nglimga mos kelgan fikrni, tuyg'uni topmaganimdan so'ng o'qimay qo'yaman. Gulchehraning she'rlarini o'qir ekanman, tabiatiga mos sokinlik, o'ychanlik, mayin tabassumni va hazinlik kayfiyatini anglaganday bo'laman.

*Qushim,  
Kapalakning qanotlarin o'p,  
Sabriga sig'ingil, mehriга sig'in.  
Dodingni maysaning quchog'iga to'k,  
Jur'atiga sig'in, sehriga sig'in.*

Bu satrlar shoiraning "Ko'nglimga" nomli she'ridan olingan. Shoira oddiy satrlarga jiddiy mushohada va vazminlik ohangini singdirishga intilgan. Men tanigan Gulchehra qizaloqning qizi, u oddiy tabiat sehnini, mo'jizasini boshqalardan ko'ra teran anglaydi. "Hayrat" nomli she'rida aynan tabiatning eng nozik, hamma ham anglayvermaydigan qirralarini qalamga olgan:

*Chumoli adirdan don tashir,  
Ninachi sibizg'a sozlaydi.  
Tebranar sho'razor kumushrang,  
Yantoqlar qizarib gullaydi.*

She'rning davomida "Gulning g'unchasi", "yugurik jilg'a", "qirg'oqdag yalpiz", "jon-zotlarning yog'ochlar ichidan rizq topishi" bilan bog'liq nozik tabiat tasviri ko'z old-

imizga keladi. Uning "Oydin qishloq qissasi", "Sendagi tonglarim quyoshli" kabi badiiy-publitsistik badiialarini o'qigan odam u yashagan qishloqqa borgisi, badiada tasvirlangan manzaralarni o'z ko'zi bilan ko'rgisi keladi.

Shunday tasviriy vositalar ijodkorning "O'zim bilan yuzma-yuz" kitobi-damlangan hikoyalarda ham aks etadi.

Shoira bir o'rinda "Hayotda erishgan yutuqlarining boisi, qariyb yarim asrlik ijod yo'lmda yaxshilar ko'p bo'ldi, men ularga ergashdim, ulardan o'rgandim", deydi. Ayniqsa, u ergashgan yaxshilarni sanar ekan, "Saodat" jurnalida ishlagan paytlarida

undan o'z o'g'itlarini ayamagan taniqli shoira Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Qutlibeka Rahimboyeva va boshqa ustozlarini hurmat bilan tilga oladi.

Odatda jurnalistning noni qattiq bo'ladi, deyishadi. Bu sohaga qadam qo'ygan har bir ijodkordan mustahkam bilim, katta matonat va jasorat talab qilinadi. Gulchehraning mehnati hukumatimiz tomonidan munosib e'tirof etildi. U "Shuhrat" medali, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" unvoni bilan taqdirlandi.

**Mahkamoy TURSUNOVA,**  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti  
professori.

### APREL OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

#### 1-APREL

**Boturxon VALIXO'JAYEV** - (1932-2005). Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

#### 3-APREL

**Mamarasul BOBOYEV** - (1911-1969) Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan, shoir.

#### 12-APREL

**MUROD Muhammad Do'st** - 1949-yilda Nurobod tumanida tug'ilgan. Yozuvchi va jamoat arbobi.  
**Zulayho NORQULOVA** - (1937-2015) Paxtach tumanida tug'ilgan. Mehnat qahramoni.

#### 13-APREL

**Ahtam O'ROLOV** - 1947-yilda Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. Arxitektura fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 850 nusxada chop etildi. Buyurtma 125. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**O'.XUDOYBERDIYEV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda